



AKADEMIK XADICHA SULAYMONOVANING  
ILMIY MEROSI



E'tibor Xo'jayarova  
etibor971929@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada akademik Xadicha Sulaymonovanning ilmiy faoliyati va ilmiy merosi, qonunlarni tahlil qilishdagi xizmati, chor Rossiyasi davridagi huquqlarning olima tomonidan o'rganilishi, o'sha davrdagi xotin-qizlarning shariat qonun-qoidolari asosidagi jozalanishini davr nuqta'i nazaridan tahlili masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xadicha Sulaymonova, birinchi huquqshunos olima, jinoyat huquqi, xotin-qizlar huquqi, qatag'on farzandlari, ilmiy meros, Jinoyat va Jinoyat-prosessual kodekslari, Fuqarolik va fuqarolik-prosessual kodekslari, konferensiyalar.

SCIENTIFIC HERITAGE OF ACADEMIC  
KHADICHA SULAYMONOVA

**Annotation:** In this article, academic Khadicha Sulaimanova's scientific activity and scientific heritage, her service in the analysis of laws, the scholar's study of rights in the period of char Russia, and the analysis of the punishment of women based on sharia laws of that period from the point of view of the era are covered.

**Key words:** Khadichha Sulaimanova, the first legal scholar, criminal law, women's rights, children of repression, scientific heritage, Criminal and Criminal Procedure Codes, Civil and Civil Procedure Codes, conferences.

Akademik Xadicha Sulaymonova hayoti davomida ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan olima ayol. Sovet davrida O'zbekistondagi huquq sohasining rivojlanishiga yanada hissa qo'shgan. Uning amalga oshirgan ishlari bugungi kungacha huquq sohasining yanada takomillashuviga xizmat qilib kelmoqda.

1935-yilda O'zbekiston SSR MIQ huzuridagi Sovet qurilishi va huquqi institutini tugatgan<sup>20</sup>. 1938-yilda Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutining sovet jinoyat huquqi kafedrasiga o'qishga kirib, 1945-yilda "O'zbekiston SSRning harbiy intervensiya davridagi jinoyat qonunchiligi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu himoya ishi bilan huquqshunoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli bo'lgan<sup>21</sup>.

Ilmiy ishlari jinoyat huquqi, xususan, O'zbekistonda huquqshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, xotin-qizlar huquqi masalalariga bag'ishlangan. O'zbekiston

<sup>20</sup> Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари. I-жилд. Сулайманова Хадича Сулаймановна. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2021. – 73.

<sup>21</sup> Ismatullayeva L. Xadicha Sulaymonova. Международный научный журнал, "Научный Фокус". № 1(100), часть 1, май 2023. – С. 915.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq institutini (1958), Respublika Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutini (1959) tashkil etish tashabbuskorlaridandir<sup>22</sup>.

1948-yilning oktabrida “Sovet davlati va huquqi” jurnalida uning “O‘zbekistonda sovet jinoyat qonunining vujudg kelishi” degan maqolasi bosilib chiqdi. 1949-yilning mart oyida shu jurnalida uning ikkinchi maqolasi – “O‘zbekiston SSRda sovet sudlarining tashkil topishi tarixi” nashr etildi<sup>23</sup>.

Sulaymanova o‘z tadqiqotlarida sotsializm qurilishi va sotsializm g‘alabasi davrida O‘zbekistonda jinoyat huquqining takomillashuvi masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. 1926-yilning iyun oyida kuchga kirgan birinchi O‘zbekiston SSR jinoyat kodeksiga mukammal tavsif berib, kodeksning sotsialistik mohiyatini shahrlash bilan birga mahalliy sharoitga moslab ishlab chiqilganligi xususiyatlarini ham ko‘rsatib bergan. Juda ko‘p adabiyot, normativ akt va hujjatlar manbaini o‘rganib, O‘zbekistonda sovet jinoyat huquqi va sudi tarixini yaratgan birinchi qaldirg‘ochi bo‘lib, u olimlar orasida birinchi bo‘lib, bu og‘ir va ziddiyatli jarayonning umumiy qonuniyatlari hamda o‘ziga xos tomonlarini aniqladi<sup>24</sup>.

Tarix-huquq adabiyotida inqilobgacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyoda chorizm jinyat huquqi va jazolash siyosati ilmiy asosda yoritilishi X.S. Sulaymonova nomi bilan bog‘liqdir. Ko‘p asrlar davomida islom dini bilan bog‘liq holda Turkistonda yuzaga kelgan milliy muammolarni tahlil qilib, o‘z asarlarida eski odat va shariatning, shuningdek, qozi sudlarining ayrim normalaridan vaqtincha foydalanish mumkinligi masalasiga to‘xtalib o‘tib, bunday sharoitda, ayniqsa, mahalliy millat mehnatkash xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish uchun kurash jarayonida yuz bergan qarama-qarshilik antagonistik xarakterga ega emas, degan fikrni ilgari surgan<sup>25</sup>. X.S. Sulaymonova o‘z ilmiy faoliyati davomida quyidagi yuridik asarlarni yozishga muvaffaq bo‘ldi<sup>26</sup>:

1. O‘zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi;
2. O‘zbekiston sovet va davlat huquqi tarixi: 1917–1924-yillar;
3. O‘zbekiston sovet va davlat huquqi tarixi: 1924–1937-yillar;
4. O‘zbekiston sovet va davlat huquqi tarixi: 1937–1958-yillar;
5. O‘zbekiston xalq xo‘jaligini tartibga solishning huquqiy masalalari;
6. Kommunizm qurilishi davrida O‘zbekistonning sovet huquqi;
7. Turkiston ASSRda sovet sudining tashkil etilishi va rivojlanishi (1917- 1924).

Xadicha Sulaymonova jasorat namunalarini ko‘rsatib, o‘zbek millatining XX asrning 30 – 40-yillarida qatag‘on qilingan va nomalari nohaq qoralangan, “xalq dushmani” degan tamg‘a ostida yo‘q qilib yuborilgan yoki qamoqxonalarda nima aybi uchun o‘tirganini

<sup>22</sup> Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари. I-жилд. Сулайманова Хадича Сулаймановна. О‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2021. – 73.

<sup>23</sup> Ҳакимов М., Аҳмедов Ғ., Саидов А. Хадича Сулайманова – ҳуқуқшунос олима, давлат арбоби. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 19 б.

<sup>24</sup> Ҳакимов М., Аҳмедов Ғ., Саидов А. Хадича Сулайманова – ҳуқуқшунос олима, давлат арбоби. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 21 б.

<sup>25</sup> Ҳакимов М., Аҳмедов Ғ., Саидов А. Хадича Сулайманова – ҳуқуқшунос олима, давлат арбоби. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 20-21 б.

<sup>26</sup> Tulaganova M.K., Tursunmurodov K.T. Xadicha Sulaymonova – birinchi o‘zbek huquqshunos olimi: O‘zbekiston xalqiga qoldirgan merosi va huquqiy tizimiga qo‘shgan ulkan hissi. National University of Uzbekistan, Volume 4. Actual Problems of Sociology and Social Work in the 21st Century. XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari. – P. 131.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bilmaganlarni 50-yillarning ikkinchi yarmida adolat, qonuniylik asosida ular istiqloq kurashchilari, o'z millatining asl farzandlari ekanligini amalda isbotlashga, ularni butunlay oqlashdek sharaflilik ishga o'zining munosib hissasini qo'shdi<sup>27</sup>. Uning boshchiligidagi yaratilgan Jinoyat va Jinoyat-prosessual kodekslari, Fuqarolik va fuqarolik-prosessual kodekslari va sud tuzilishi haqidagi Qonun O'zbekistonning hozirgi ma'noda kodifikatsiya qilingan va sobiq Ittifoqda birinchilardan bo'lib qabul qilingan dastlabki qonunlar edi.

Xadicha Sulaymonova xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar jamiyatlari ittifoqining huquq bo'limi vitse-prezidenti bo'lib, Sovet tinchlik qo'mitasi va Sovet ayollari qo'mitasi ishida faol ishtirok etgan III Xalqaro sotsial kongresi (London, 1960), Xalqaro demokratik huquqshunolar assotsiyasi (IAUD) VII kongresi (Sofiya, 1960), Osiyo va Afrika ayollarining I konferensiyasi (Qohira, 1961), Osiyo va Afrika huquqshunolarining xalqaro konferensiyasi (Tokio, 1961) ishtirokchisi bo'lganlar<sup>28</sup>.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, X. Sulaymonovning e'lon qilingan ilmiy meroslari, odatda, mavzuning dolzarbligi, muhim nazariy muammolar dadil ko'tarilishi va yoritilishi, olg'a surilgan qoidaning asoslanganligi, ilmiy umumlashmalar hamda xulosalar berilishi bilan farq qiladi. Bu sifatlarning hammasi, ijodining nihoyatda unumdorligi, uning O'zbekistondagi huquqshunos olimlar orasida oldingi o'rinlardan birini egallashiga imkon berdi. Uning boshchiligidagi yaratilgan qonunlar O'zbekistonning Mustaqillik davridagi qonunlar yozilishiga yanada asos bo'ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари. I-жилд. Сулайманова Хадича Сулаймановна. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2021. – 204.
2. Ismatullayeva L. Xadicha Sulaymonova. Международный научный журнал, "Научный Фокус". № 1(100), часть 1, май 2023. – С. 915-920.
3. Amirova L.A. Huquq olamida o'chmas iz qoldirgan ayol. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. Toronto, Canada. May, 2024. – P. 31-34.
4. Tulaganova M.K., Tursunmurodov K.T. Xadicha Sulaymonova – birinchi o'zbek huquqshunos olimi: O'zbekiston xalqiga qoldirgan merosi va huquqiy tizimiga qo'shgan ulkan hissasi. National University of Uzbekistan, Volume 4. Actual Problems of Sociology and Social Work in the 21st Century. XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari. – P. 129-133.
5. Ҳақимов М., Аҳмедов Ғ., Саидов А. Хадича Сулайманова – ҳуқуқшунос олима, давлат арбоби. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 151 б.

<sup>27</sup> Ҳақимов М., Аҳмедов Ғ., Саидов А. Хадича Сулайманова – ҳуқуқшунос олима, давлат арбоби. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 146 б.

<sup>28</sup> Amirova L.A. Huquq olamida o'chmas iz qoldirgan ayol. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. Toronto, Canada. May, 2024. – P. 33-34.

